TURIZM SOHASIDA DAVLAT TILI VA CHET TILLARINING MUTANOSIBLIGI

Zuhriddinova Xabiba Sadiriddin qizi
Andijon davlat chet tillari universiteti Xorijiy filologiya va turizm fakulteti IF Ingliz tili yo‘nalish ikkinchi kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24153320

Annotatsiya: Bu maqolada turizmda davlat tili va chet tillarining birga ishlashini, ularning turistik xizmatlar sifatini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zbek tili milliy madaniyat va tarixiy merosni targ‘ib etishdagi o‘rni, xorijiy tillar xalqaro muloqotdagi ahamiyati, tarixiy va madaniy ma’lumotlarni chet tillariga sifatli tarjima qilish masalalari tahlil qilinadi. Turizm xodimlarining til kompetensiyasini rivojlantirish hamda davlat tili va chet tillarining uyg‘un qo‘llanishini ta’minlash bo‘yicha takliflar taqdim etiladi.
Kalit so‘zlar: turizm, davlat tili, o‘zbek tili, chet tillari, til siyosati, tarjima, milliy madaniyat, tarixiy meros, xalqaro muloqot, turistik xizmatlar.

Kirish

Bugungi kunda turizm iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biri. Turizm orqali mamlakatlar o‘zining tabiiy boyliklarini, tarixiy obidalarini, milliy urf-odatlarini va madaniy merosini xalqaro miqyosda namoyon etadi. Sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish, ularni kerakli ma’lumot bilan ta’minlash va milliy qadriyatlarni to‘g‘ri tanishtirishda til juda muhim.

O‘zbekiston qadimiy tarixi, boy madaniy merosi va noyob me’moriy obidalari bilan mashhur. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarda joylashgan obidalar mamlakatimizning xalqaro turizm salohiyatini ko‘rsatadi. Sayyohlar bu maskanlarga tashrif buyurib, nafaqat me’moriy yodgorliklarni ko‘rishni, balki ularning tarixi, yaratilish sabablari va xalqimiz hayotidagi ahamiyatini ham bilishni xohlaydilar.

Sayyohlarga ma’lumotlarni tushunarli tarzda yetkazishda davlat tili va chet tillari juda muhim. O‘zbek tili milliy tarix va madaniyatni ifodalashning asosiy vositasi, xorijiy tillar esa bu boyliklarni xalqaro auditoriyaga tanishtiradi. Shuning uchun turizmda bu tillar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmasdan, o‘zaro uyg‘unlikda ishlatilishi kerak.

Maqolaning maqsadi turizmda davlat tili va chet tillarining ahamiyatini ko‘rsatish, ularning birgalikda ishlatilishiga oid masalalarni tahlil qilish hamda sohani yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Asosiy qism

1. Davlat tilining turizm sohasidagi o‘rni

Til xalqining tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va milliy o‘zligini ko‘rsatadi. Har bir mamlakatning o‘ziga xosligini bilishda uning tili, adabiyoti, urf-odatlari va madaniy merosi katta ahamiyatga ega. Turizmda davlat tilidan foydalanish faqat ma’lumot almashish uchun emas, balki milliy madaniyatni namoyon etish uchun ham zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida davlat tili o‘zbek tili ekanligi ko‘rsatilgan. «Davlat tili haqida» Qonuni ham o‘zbek tilining davlat tili sifatida huquqiy maqomini mustahkamlaydi.

Bu huquqiy asoslar davlat tilining ijtimoiy hayotdagi o‘rnini belgilash va turli sohalarda ishlatilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Turizmda o‘zbek tilining ahamiyati, ayniqsa, tarixiy obidalar va madaniy meros obyektlarini tanishtirishda aniq ko‘rinadi. Ko‘plab tarixiy tushunchalar, milliy urf-odatlar, marosimlar va qadriyatlar o‘zbek tilida maxsus ma’no va mazmunni o‘zida mujassamlashtiradi.

Ularni boshqa tillarga tarjima qilishda, nafaqat lug‘aviy ma’nolarni, balki tarixiy va madaniy mazmunni ham to‘g‘ri yetkazish kerak.

Masalan, tarixiy obida haqida o‘zbek tilida tayyorlangan ma’lumot sayyohga uning qurilish tarixi, me’moriy xususiyatlari va xalq hayotidagi o‘rni haqida to‘liq tasavvur beradi.

Ushbu ma’lumot xorijiy tilga tarjima qilinganda ham mazmuni, tarixiy aniqligi va milliy xususiyatlari saqlanishi lozim.

Shu sababli turistik obyektlarda o‘zbek tilidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lishi zarur.

Davlat tilidagi axborot taxtalari, ekskursiya matnlari, muzey tavsiflari va boshqa ma’lumot vositalari mahalliy aholi va o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijliklar uchun ham foydalidir. Davlat tilining turizm sohasidagi mavqeyini mustahkamlash xorijiy tillardan foydalanishni cheklash degani emas. Aksincha, o‘zbek tilidagi ma’lumotlarni sifatli tayyorlash va ularni boshqa tillarga to‘g‘ri tarjima qilish milliy madaniyatni kengroq auditoriyaga yetkazadi.

2. Chet tillarining turizm rivojida ahamiyati

Xalqaro turizm rivojida chet tillarini bilish juda muhim. Turli mamlakatlardan kelgan sayyohlar bilan muloqot qilish, ularning savollariga javob berish, tarixiy obidalar haqida ma’lumot berish va xizmatlarni to‘g‘ri tashkil etish uchun turizm xodimlari tegishli til ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Xususan, gidlar, tarjimonlar, mehmonxona xodimlari, turistik agentlik vakillari va sayyohlar bilan bevosita ishlaydigan mutaxassislar uchun xorijiy tillarni bilish katta ahamiyatga ega.

Chet tilida aniq va tushunarli muloqot qilish sayyohning safar davomida kerakli ma’lumotlarni olish va xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi.

Ingliz tili xalqaro muloqotda keng qo‘llaniladigan tillardan biri bo‘lib, turizmda undan foydalanish ko‘plab xorijiy sayyohlar bilan aloqa o‘rnatishga yordam beradi.

Shuningdek, tashrif buyuruvchilarning kelib chiqishi va til ehtiyojlariga qarab rus, xitoy, fransuz, nemis va boshqa tillarni bilish zarur bo‘lishi mumkin.

Biroq turizm xodimlari xorijiy tillarni bilishi faqat kundalik suhbat bilan cheklanmasligi kerak. Ular tarixiy atamalar, me’moriy tushunchalar, milliy urf-odatlar va madaniy qadriyatlarni ham tegishli tilda tushuntira olishlari lozim.

Oddiy suhbatni olib borish va tarixiy ma’lumotni aniq bayon qilish o‘rtasida sezilarli farq bor.

Masalan, gid bir tarixiy obida haqida chet tilida gapira olsa-yug, uning tarixiy ahamiyatini to‘liq tushuntira olmasa, sayyoh maskan haqida yuzaki tasavvurga ega bo‘lib qoladi.

Shu bois, tilni bilish bilan birga tarixiy va madaniy bilimlarga ega bo‘lish ham zarur.

Shu yo‘lda, turizm sohasidagi xodimlarni tayyorlashda, chet tillar bilan birga O‘zbekiston tarixi, madaniyati va milliy merosiga oid bilimlarni rivojlantirish juda muhimdir. Bu, sayyohlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning mazmunini boyitadi va mamlakatimiz haqidagi to‘g‘ri va batafsil tasavvur hosil bo‘lishini ta’minlaydi.

3. Tarjima sifati va madaniy mazmunni saqlash masalasi

Turizm sohasida tarjima sifati alohida e’tibor talab qiladigan muhim masalalardan biridir. Tarjima orqali bir tilda ifodalangan tarixiy, madaniy va ma’naviy ma’lumotlar boshqa tilni gapiruvchi insonlarga yetkaziladi. Bu yerda matnni shunchaki boshqa tilga o‘girish emas, balki uning mazmuni, tarixiy aniqligi va madaniy xususiyatlarini saqlash ham juda muhimdir.

O‘zbekistonning tarixiy obidalari, muzeylari va boshqa turistik maskanlarida turli tillarda taqdim etiladigan ma’lumotlar sayyohlarning mamlakatimiz haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Agar tarjimada xatolar bo‘lsa yoki muhim ma’lumotlar noto‘g‘ri ifodalansa, tarixiy voqea yoki madaniy tushuncha haqida noto‘g‘ri tasavvur hosil bo‘lishi mumkin.

Bunday muammolarni oldini olish uchun tarjima jarayoniga mas’uliyat bilan yondashish zarur. Tarjimon nafaqat kerakli tillarni bilishi, balki tarjima qilinayotgan mavzuni ham yaxshi tushunishi lozim. Xususan, tarixiy shaxslar, me’moriy uslublar, milliy marosimlar va an’analar haqida ma’lumot berishda atamalarning to‘g‘ri ishlatilishi katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, tarixiy va madaniy ma’lumotlarni tayyorlashda mutaxassislar hamkorligi juda muhimdir. Tarjimon, tarixchi va turizm sohasi vakillarining birgalikdagi faoliyati matnlarning aniqligini va tushunarli bo‘lishini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda tarjima texnologiyalari va avtomatik tarjima vositalari ham keng qo‘llanilmoqda. Ular dastlabki tarjimani tayyorlash va ayrim til to‘siqlarini kamaytirishda foydali bo‘lishi mumkin. Biroq tarixiy va madaniy mazmunga ega matnlarni yakuniy tekshiruvsiz e’lon qilish maqsadga muvofiq emas. Bunday matnlarda inson tomonidan tahrir qilish, faktlarni tekshirish va terminlarning to‘g‘riligini baholash zarur. Shunday qilib, tarjima sifati turizm xizmatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak. Sifatli tarjima sayyohga mamlakat tarixi va madaniyatini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

4. Davlat tili va chet tillarining mutanosibligini ta’minlash

Turizm sohasida davlat tili va chet tillarining mutanosibligi, bu tillarning vazifalari va qo‘llanish doirasini bir-biriga moslashtirishni anglatadi. Bunda davlat tilining huquqiy maqomi va milliy madaniyatni ifodalashdagi o‘rni saqlanadi, xorijiy tillar esa xalqaro muloqot va sayyohlarga xizmat ko‘rsatish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlardan biridir. Mazkur qonunda turistlarning sayohat bilan bog‘liq to‘liq va ishonchli axborot olish huquqi ham belgilangan. Bu talab turistik ma’lumotlarning aniqligi, tushunarliligi va sayyohlar ehtiyojlariga mos bo‘lishi muhimligini ko‘rsatadi.

Mutanosiblikni ta’minlashning amaliy yo‘llaridan biri, turistik obyektlarda davlat tilidagi ma’lumotlarni boshqa tillardagi tarjimalar bilan uyg‘unlashtirishdir. Masalan, tarixiy obida haqidagi axborot taxtasida avvalo o‘zbek tilidagi to‘liq va sifatli matn, undan keyin esa sayyohlar uchun zarur bo‘lgan xorijiy tillardagi tarjimalar berilishi mumkin. Bunday yondashuv o‘zbek tilining mavqeyini saqlash bilan birga, xorijiy sayyohlarning axborot olish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Bundan tashqari, turistik veb-saytlar, elektron qo‘llanmalar, xaritalar va mobil ilovalarda ham o‘zbek tilidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda xorijiy tillardagi variantlar mavjud bo‘lishi foydalidir. Bu sayyohlarga sayohatni oldindan rejalashtirish, kerakli manzillar haqida ma’lumot olish va tarixiy joylar bilan mustaqil tanishish imkonini beradi.

Til mutanosibligini ta’minlashda yana bir muhim jihat — turizm xodimlarining kasbiy tayyorgarligidir. Har bir xodimdan barcha xorijiy tillarni bilishni talab qilish amaliy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Buning o‘rniga, xodimlarning vazifasi va sayyohlar bilan muloqot qilish darajasiga qarab tegishli til ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, gidlar va xalqaro sayyohlar bilan muntazam ishlaydigan mutaxassislar bir yoki bir nechta xorijiy tilni chuqur o‘rganishlari mumkin. Boshqa xodimlar esa o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy muloqot ko‘nikmalarini egallashlari lozim.

Demak, mutanosiblik barcha tillardan bir xil darajada foydalanish degani emas. U davlat tilining maqomini hurmat qilgan holda, turistik xizmatlarning samarali va tushunarli bo‘lishi uchun zarur tillardan oqilona foydalanishni anglatadi.

5. Mavjud masalalar va ularni hal etish bo‘yicha takliflar

Turizm sohasida davlat tili va chet tillaridan samarali foydalanish uchun bir qator amaliy vazifalarga e’tibor qaratish lozim. Avvalo, turistik obyektlardagi yozuvlar, axborot taxtalari, muzey tavsiflari va ekskursiya matnlarining til jihatidan to‘g‘ri hamda mazmunan aniq bo‘lishini ta’minlash zarur.

Birinchidan, tarixiy va madaniy obyektlar haqidagi ma’lumotlarni tayyorlashda yagona sifat talablariga amal qilish zarur. Matnlar o‘zbek tilida savodli yozilishi, xorijiy tillarga esa

malakali mutaxassislar tomonidan tarjima qilinishi lozim. Tarjimalarning mazmuni tegishli soha mutaxassislari tomonidan tekshirilishi ham foydali hisoblanadi.

Ikkinchidan, turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar va sohada faoliyat yuritayotgan xodimlarning kasbiy til ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Bunda umumiy chet tili mashg‘ulotlari bilan birga, turizmga oid lug‘at, tarixiy atamalar, mehmonlar bilan muloqot va ekskursiya olib borishga doir amaliy mashg‘ulotlarga ham e’tibor berilishi kerak.

Uchinchidan, o‘zbek tilidagi tarixiy va madaniy ma’lumotlarning sifatini oshirish zarur. Xorijiy sayyohlarga taqdim etiladigan tarjimalarning sifati ko‘p jihatdan asl matnning aniqligi va puxtaligiga bog‘liq. Shu sababli dastlab o‘zbek tilidagi matnlarni ilmiy va uslubiy jihatdan takomillashtirish, keyin ularni boshqa tillarga tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, turistik axborot vositalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan, QR-kodlar orqali sayyohlarga o‘zbek va xorijiy tillardagi batafsil ma’lumotlarni taqdim etish, audio qo‘llanmalar yaratish va elektron xaritalardan foydalanish axborot olish jarayonini yengillashtiradi.

Beshinchidan, turizm sohasi vakillari, tarjimonlar, tilshunoslar va tarixchilar birga ishlashni mustahkamlash kerak. Shunday hamkorlik tarixiy ma’lumotlarning ishonchliligini oshiradi, tarjima xatolarini kamaytiradi va milliy madaniyatni to‘g‘ri targ‘ib qiladi.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, davlat tili va chet tillari bir-birini to‘ldiradi. Asosiy maqsad bir tilni boshqa tilning imkoniyatlarini cheklash emas, balki har bir tilning o‘z vazifasidan samarali foydalanishdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasida davlat tili va chet tillarining bir-birini to‘ldirishi mamlakatning milliy madaniyatini asrashga, tarixiy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga va sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatishga yordam beradi. O‘zbek tili xalqimizning tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi asosiy vosita, chet tillari esa bu boyliklarni xorijiy auditoriyaga yetkazadi.

Shu bois turizm sohasida davlat tili va chet tillarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularning o‘zaro to‘ldiruvchi imkoniyatlaridan foydalanish zarur. O‘zbek tilidagi ma’lumotlar sifatli tayyorlanishi, xorijiy tillarga mazmunan to‘g‘ri tarjima qilinishi va turizm xodimlarining kasbiy til ko‘nikmalari rivojlantirilishi muhim vazifalardir.

Muallifning fikricha, turistik maskanlarda davlat tilidagi ma’lumotlar bilan birga sayyohlar ehtiyojiga mos xorijiy tillardagi axborotlarni taqdim etish samarali yechimdir. Bunda tarjimalarning aniqligi, tarixiy ma’lumotlarning ishonchliligi va milliy madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini saqlashga alohida e’tibor qaratish kerak

Shuningdek, turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlashda chet tillarini o‘rgatish bilan birga, O‘zbekiston tarixi, madaniyati va milliy merosi haqidagi bilimlarni rivojlantirish muhimdir. Chunki o‘z mamlakati tarixini chuqur bilgan va uni boshqa tillarda tushuntira oladigan mutaxassis sayyohlarga yanada to‘liq va to‘g‘ri tasavvur beradi.

Umuman olganda, davlat tili va chet tillarining uyg‘unligi turizm xizmatlari sifatini oshiradi, milliy qadriyatlarni asrashga yordam beradi va O‘zbekistonning xalqaro turistik nufuzini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Abduqodirov A. A., Pardaev M. K.** *Turizm nazariyasi va amaliyoti.* — Toshkent: «Fan va texnologiya», 2014.
2. **Bobojonov Sh. M.** *O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirishning iqtisodiy-huquqiy asoslari.* — Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2019.
3. **Jo‘rayev N.** *Tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglash.* — Toshkent: «Sharq», 2011.
4. **Karimov N. va boshqalar.** *O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida.* — Toshkent: «O‘zbekiston tarixi yodgorliklari», 2018.

5. **Madvaliyev S.** *O‘zbek tiliining davlat tili sifatidagi maqomi va imlo masalalari.* — Toshkent: «Fan», 2016.
6. **Mamatov A.** *Tarjima nazariyasi asoslari va amaliy tarjima masalalari.* — Toshkent: Universitet, 2017.
7. **Safarov O.** *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va milliy etnografiya.* — Toshkent: «O‘qituvchi», 2010.
8. **Tursunov U., Muxtorov J.** *Hozirgi o‘zbek adabiy tili.* — Toshkent: «O‘qituvchi», 2009.
9. **Xolbekov A.** *Xalqaro turizm va mehmonxona xo‘jaligini boshqarish.* — Toshkent: «O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi», 2021.